Kalit so'zlar: seribral falaj, sensor integratsiya, faktorli tahlil, diqqat, motorika, sensor modulyatsiya, psixomotor rivojlanih, emotsional reaktivlik, bolalar psixologiyasi.

Abstract: The specific features of sensory integration processes in children aged 5-7 with cerebral palsy are examined based on an empirical study. Factor analysis was employed to identify relationships between sensory, attentional, and motor function indicators. The results revealed four principal factors of sensory integration: sensory-attention imbalance and motor-perceptual disintegration; sensory defensiveness and psychomotor passivity; orofacial sensitivity and psychomotor tone imbalance; and sensory-emotional hyperreactivity. Based on factor loadings and component structure, complex interrelations between sensory modulation, attention stability, motor coordination, and emotional reactivity in children were analyzed. The findings indicate that sensory integration in children with cerebral palsy is characterized by systemic dysfunction and substantiate the need for comprehensive corrective and developmental interventions.

Key words: cerebral palsy, sensory integration, factor analysis, attention, motor skills, sensory modulation, psychomotor development, emotional reactivity, child psychology.

Аннотация: Изучены особенности процессов сенсорной интеграции у детей 5-7-лет с церебральным параличом на основе эмпирического исследования. Для выявления взаимосвязей между показателями сенсорных, внимательных и моторных функций применён факторный анализ. В результате выделены четыре основных фактора сенсорной интеграции: сенсорно-внимательный дисбаланс и моторно-перцептивная дезинтеграция; сенсорная защитность и психомоторная пассивность; орофациальная чувствительность и дисбаланс психомоторного тонуса; сенсорно-эмоциональная гиперреактивность. На основе факторных нагрузок и структуры компонентов проанализированы сложные взаимосвязи между сенсорной модуляцией, устойчивостью внимания, моторной координацией и эмоциональной реактивностью у детей. Полученные результаты свидетельствуют о системном нарушении сенсорной интеграции у детей с церебральным параличом и обосновывают необходимость организации коррекционно-развивающей работы на основе комплексного подхода.

Ключевые слова: церебральный паралич, сенсорная интеграция, факторный анализ, внимание, моторика, сенсорная модуляция, психомоторное развитие, эмоциональная реактивность, детская психология.

KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda bolalarning rivojlanishidagi funksional buzilishlarni kompleks yondashuv asosida o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, seribral falajli bolalarda sensor tizimlar, diqqat jarayonlari va motor funksiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash dolzarb



masalalardan biridir. Chunki mazkur funksiyalar bolaning atrof-muhitni idrok etishi, ijtimoiy moslashuvi va o'quv faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirok etishining asosiy psixologik mexanizmlarini tashkil etadi.

Seribral falaj holatida markaziy nerv tizimining organik zararlanishi natijasida nafaqat harakat tizimi, balki sensor axborotni qabul qilish, qayta ishlash va integratsiyalash jarayonlari ham izdan chiqadi. Bu esa diqqatning beqarorligi, sensor sezuvchanlikning ortishi yoki pasayishi, emotsional reaktivlikning o'zgarishi hamda motor koordinatsiyaning sustlashuvi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Natijada bola faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi pasayadi, ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayoni murakkablashadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, seribral falajli bolalarda sensor, diqqat va motor funksiyalar o'rtasidagi integratsiya jarayonlari ko'pincha alohida-alohida o'rganilib, ularning yagona tizim sifatidagi o'zaro ta'siri yetarli darajada ochib berilmagan. Shu bois ushbu komponentlarning yashirin omillar asosida birlashuvi va ularning psixologik mazmunini aniqlash ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi. Ayniqsa, faktorli tahlil usulidan foydalanish mazkur ko'rsatkichlarning ichki tuzilmasini aniqlash va tizimli qonuniyatlarni ochib berish imkonini beradi.

Tadqiqotning obyekti - seribral falajli 5-7-yoshdagi bolalarda sensorli integratsiya jarayonlari.

Tadqiqotning predmeti – seribral falajli bolalarda sensor, diqqat va motor funksiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning faktorli tuzilmasi.

Tadqiqotning maqsadi – seribral falajli bolalarda sensor, diqqat va motor funksiyalar integratsiyasining faktorli tuzilmasini aniqlash hamda uning psixologik mazmunini asoslash.

Tadqiqotning vazifalari:

- sensor, diqqat va motor funksiyalar ko'rsatkichlarini empirik jihatdan o'rganish;
- olingan ma'lumotlarni faktorli tahlil asosida qayta ishlash va asosiy omillarni aniqlash;
- aniqlangan faktorlarning psixologik mazmunini talqin qilish;
- tadqiqot natijalari asosida psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot natijalari seribral falajli bolalarda sensor integratsiya jarayonlarining tizimli xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi hamda ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlashga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalar serebral falaji muammosi tibbiyot, psixologiya va pedagogika fanlarida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Xorijiy olimlar tomonidan bolalar serebral falajining nevrologik xususiyatlari, harakat buzilishlari va rehabilitatsiya jarayonlari keng yoritilgan. Shuningdek, sezgi tizimlarining rivojlanishi va sensorli integratsiya jarayonlarining bola psixik rivojlanishidagi o'rni bo'yicha ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mahalliy ilmiy adabiyotlarda esa bolalar serebral falajida korreksion-pedagogik ishlar, logopedik va psixologik yordam masalalari yoritilgan bo'lsa-da, sensorli integratsiya terapiyasining aynan psixologik-pedagogik asoslari, uni ta'lim va rehabilitatsiya jarayoniga tizimli ravishda joriy etish mexanizmlari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Sensorli integratsiya nazariyasi ilk bor A. Jean Ayres tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u markaziy nerv tizimining sensor axborotni qabul qilish, qayta ishlash va mos javob reaksiyalarini shakllantirishdagi rolini asoslab bergan ^[1]. Mazkur yondashuvga ko'ra, sensor tizimlar faoliyatidagi nomutanosiblik bolalarning kognitiv, emotsional va motor rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Keyingi tadqiqotlarda sensorli integratsiya jarayonlari neyropsixologik va rivojlanish psixologiyasi doirasida keng o'rganilib, uning diqqat, xulq-atvor va o'rganish jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi aniqlangan ^[2]. Xususan, Lucy Jane Miller sensor modulyatsiya buzilishlari bolalarda giperreaktivlik, gipoaktivlik va sensor izlanish kabi xulqiy ko'rinishlarda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi ^[3].

Seribral falajli bolalar rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda esa asosiy e'tibor harakat tizimidagi buzilishlarga qaratilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda sensor va kognitiv komponentlarning ham muhimligi e'tirof etilmoqda ^[4].

Bert Steenbergen va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar seribral falajli bolalarda sensor-motor integratsiya buzilishi harakatni rejalashtirish va bajarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan ^[5].

Diqqat jarayonlari bilan bog'liq tadqiqotlar ham ushbu muammoning kompleks xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi. Adele Diamond ijro etuvchi funksiyalar, jumladan diqqatni boshqarish va kognitiv nazoratning rivojlanishi sensor axborotni qayta ishlash sifati bilan chambarchas bog'liqligini asoslab bergan ^[6]. Bu esa sensor integratsiya buzilishlari mavjud bo'lgan bolalarda diqqatning beqarorligi kuzatilishini izohlaydi.



Orofasiyal sezuvchanlik va psixomotor rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik ham bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. Suzanne Evans Morris og'iz orqali sensor sezuvchanlikning ortishi ovqatlanish xulqi, nutq rivoji va umumiy psixomotor holatga sezilarli ta'sir ko'rsatishini qayd etadi ^[7].

Shuningdek, emotsional reaktivlik va sensor sezgirlik o'rtasidagi bog'liqlik ham ilmiy jihatdan asoslangan. Stanley Greenspan sensor tajribalar bolaning affektiv rivojlanishida muhim o'rin tutishini va sensor tizimdagi nomutanosiblik emotsional javoblarning kuchayishiga olib kelishini ta'kidlaydi ^[8].

Faktorli tahlil usuli psixologik tadqiqotlarda murakkab ko'rsatkichlar o'rtasidagi yashirin tuzilmalarni aniqlashda keng qo'llaniladi. Raymond B. Cattell tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv ko'p o'zgaruvchili tizimlarni strukturaviy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi ^[9]. Mazkur metod sensor, diqqat va motor funksiyalar o'rtasidagi yashirin omillarni aniqlashda samarali hisoblanadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, sensor integratsiya muammosi ko'p komponentli va tizimli xarakterga ega bo'lib, ayniqsa seribral falajli bolalarda uning diqqat, motorika va emotsional rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligi yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, faktorli tahlil asosida sensor, diqqat va motor funksiyalar integratsiyasining ichki tuzilmasini aniqlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida quyidagi psixologik-pedagogik metodlar tizimli ravishda qo'llanildi. Ushbu metod BSFga chalingan bolalarning sensor-motor faolligini tabiiy sharoitda o'rganish imkonini beradi. Bolaning tashqi muhit stimullariga (shovqin, yorug'lik, kiyim matosi, jismoniy kontakt) bo'lgan reaksiyasi aniqlandi. Bolaning o'yin davomidagi harakatlari, muvozanatni saqlashi va o'z tengdoshlari bilan muloqotdagi emotsional holati maxsus kuzatuv xaritasiga qayd etildi. "Sensor profil" (Sensory Profile) so'rovnoma. Bu metodika BSFda sensor integratsiya buzilishlarini miqdoriy va sifat jihatidan baholashning asosiy vositasidir. V. Dann (W. Dunn) tomonidan ishlab chiqilgan ushbu so'rovnoma orqali bolaning 7 ta sezgi tizimi (taktil, vestibulyar, propioseptiv, ko'rish, eshitish, ta'm va hid bilish) bo'yicha sezuvchanlik darajasi (gipersezuvchanlik yoki giposezuvchanlik) aniqlandi. Mazkur tadqiqotda seribral falajli 5-7-yoshdagi bolalarda sensorli integratsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar matematik-statistik usullar, xususan, faktorli tahlil yordamida qayta ishlanib, sensor integratsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi ichki bog'liqlik va tuzilma aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning asosiy maqsadi – bolalarda sensor axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uni motor hamda kognitiv faoliyat bilan integratsiyalash jarayonlarida yuzaga keladigan tipik va tizimli qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda olingan ko'rsatkichlarning o'zaro korrelyatsiyasi va ularning yashirin omillar (faktorlar) tarkibida birlashish darajasi alohida e'tibor markazida bo'ldi.

Faktorli tahlil natijalari sensorli integratsiya tizimining ko'p komponentli tuzilishga ega ekanligini hamda uning alohida psixologik va psixomotor ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Aniqlangan faktorlar bolalarda diqqat jarayonlari, sensor modulyatsiya, motor koordinatsiya, emotsional reaktivlik va umumiy psixomotor faollik o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi.

Quyida har bir aniqlangan faktorning tarkibi, uning komponentlari va psixologik mazmuni batafsil tahlil qilinadi hamda olingan natijalarning ilmiy-pedagogik talqini keltiriladi (1-jadval).

1-jadval: Seribral falajli bolalar (5-7 yosh) sensorli integratsiyasining asosiy komponentlari

Компонент	Факторлар			
	1	2	3	4
E'tiborsizlik / chalg'ish	0,745			
Sensor stimullarni izlash	0,631			
Mayda motorika / idrok	-0,727			
Sensorlardan qochish		0,668		
Kam harakatchanlik		-0,623	0,573	
Og'iz orqali sezgir reaksiyalar			0,788	
Past bardoshlik / mushak tonusining pastligi			-0,433	
Emotsional reaktivlik				0,624
Sensor reaktivlik				0,454



Seribral falajli bolalar (5-7-yosh)da sensorli integratsiya ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkazilgan faktorli tahlil natijalariga ko'ra, birinchi faktor uchta asosiy komponentdan tashkil topgan: e'tiborsizlik / chalg'ish (0,745), sensor stimullarni izlash (0,631) va mayda motorika / idrok (-0,727). Ushbu ko'rsatkichlarning yuklamalari mazkur faktorning ichki tuzilmasini va psixologik mazmunini aniqlash imkonini beradi.

Birinchi "Sensor-diqqat nomutanosibligi va motor-idrokiy disintegratsiya faktori"da e'tiborsizlik / chalg'ish komponentining yuqori musbat yuklamasi (0,745) bolalarda diqqatning barqaror emasligi, tashqi ta'sirlarga tez berilishi va faoliyat jarayonida maqsadga yo'naltirilganlikning sustligini anglatadi. Bu holat markaziy nerv tizimining funksional yetilmaganligi yoki sensor axborotni qayta ishlash mexanizmlarining nomutanosibligi bilan izohlanishi mumkin. Sensor stimullarni izlash komponentining musbat yuklamasi (0,631) bolalarda qo'shimcha taktil, proprioseptiv yoki vestibulyar ta'sirlarga ehtiyoj yuqoriligini bildiradi. Bunday xususiyat ko'pincha sensor registratsiya chegarasining pastligi yoki optimal qo'zg'alish darajasini saqlash qiyinligi bilan bog'liq bo'ladi. Natijada bola atrof-muhitdan faol ravishda qo'shimcha stimullar izlaydi, bu esa uning xulq-atvorida bezovtalik yoki giperfaollik ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Mayda motorika / idrok komponentining manfiy yuklamasi (-0,727) esa ushbu faktorda diqqat va sensor izlanish kuchaygan sari nozik harakatlarni boshqarish hamda idrok jarayonlarining samaradorligi pasayishini ko'rsatadi. Bu o'zaro teskari bog'liqlik sensor-motor integratsiya yetarli darajada shakllanmaganligini anglatadi. Ya'ni, bola ko'proq tashqi stimullarga yo'nalsa, mayda motor koordinatsiyasi va vizual-idrokiy aniqlik sustlashadi. Mazkur uch komponentning o'zaro munosabati shuni ko'rsatadiki, birinchi faktor diqqatning beqarorligi va sensor ehtiyojning ortishi fonida motor-idrokiy funksiyalarning pasayishi bilan tavsiflanadi. Bu holat seribral falajli bolalarda sensor integratsiya jarayonining tizimli buzilishi mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur 1-faktorni "Sensor-diqqat nomutanosibligi va motor-idrokiy disintegratsiya faktori" deb nomladik. Ushbu nom faktorda aks etgan uch jihatni – diqqatning beqarorligi, sensor stimullarga yuqori ehtiyoj va mayda motorika / idrok ko'rsatkichlarining pasayishini – yagona nazariy konstruktsiya doirasida birlashtiradi.

Seribral falajli bolalar (5-7-yosh)da aniqlangan "Sensor-diqqat nomutanosibligi va motor-idrokiy disintegratsiya faktori" bolaning sensor axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga integratsiyalash jarayonida tizimli nomutanosiblik mavjudligini anglatadi.

Psixologik nuqtai nazardan, mazkur faktor diqqatning beqarorligi va tez chalg'uvchanlikning sensor stimullarga ortiqcha ehtiyoj bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi. Bola atrof-muhitdan qo'shimcha taktil, vestibulyar yoki proprioseptiv ta'sir izlaydi, biroq ushbu stimullarni samarali tartibga sola olmaydi. Natijada kognitiv nazorat susayadi va faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi pasayadi.

Pedagogik jihatdan bu holat o'quv topshiriqlarini bajarishda barqaror e'tiborni saqlash qiyinligi, ko'rsatmalarni izchil bajara olmaslik hamda mayda motorika bilan bog'liq amaliy vazifalarda (yozuvga tayyorgarlik, konstruktiv faoliyat, predmetli manipulyatsiya) sustlik bilan namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, mazkur faktor sensor jarayonlar, diqqat mexanizmlari va motor-idrokiy funksiyalar o'rtaidagi integratsiyaning yetarli shakllanmaganligini ifodalaydi. Bu esa korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni sensor modulyatsiya, diqqatni boshqarish va mayda motorika ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish asosida tashkil etishni talab etadi.

Seribral falajli bolalar (5-7-yosh)da sensorli integratsiya ko'rsatkichlari bo'yicha ajratilgan ikkinchi faktor ikki komponentdan tashkil topgan: sensorlardan qochish (0,668) va kam harakatchanlik (-0,623). Mazkur faktorga "Sensor himoyalaniish va psixomotor passivlik faktori" deb nom berildi. Ushbu yuklamalar faktorning ichki psixologik tuzilmasini aniqlash imkonini beradi.

Sensorlardan qochish komponentining musbat yuklamasi (0,668) bolada taktil, eshitish, vizual yoki vestibulyar stimullarga nisbatan yuqori sezuvchanlik va himoyaviy reaksiya mavjudligini bildiradi. Bunday bolalar kuchli yoki kutilmagan tashqi ta'sirlardan o'zini chetga tortadi, bezovtalik yoki noqulaylik his qiladi. Bu holat sensor modulyatsiya mexanizmlarining yetarli darajada muvozanatlashmaganligi bilan izohlanadi.

Kam harakatchanlik komponentining manfiy yuklamasi (-0,623) esa mazkur faktorda sensorlardan qochish kuchaygan sari umumiy motor faollikning pasayishini ko'rsatadi. Ya'ni, bola atrof-muhit bilan faol o'zaro ta'sirga kirishish o'rniga passiv pozitsiyani egallaydi. Bu psixomotor sustlik, tashabbusning pastligi va harakat tajribasining cheklanishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur ikki ko'rsatkichning o'zaro bog'liqligi shuni anglatadiki, sensor ta'sirlardan himoyalaniish tendensiyasi kuchaygan sari motor faollik kamayadi. Natijada bola muhit bilan o'zaro aloqani qisqartiradi, bu esa idrokiy va ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Ushbu faktor seribral falajli bolalarda sensor sezuvchanlikning ortishi va psixomotor passivlikning uyg'unlashgan holatini ifodalaydi. 2-faktorga "Sensor himoyalaniish va psixomotor passivlik faktori" deb nom tavsiya etiladi. Mazkur nom faktorda aks etgan ikki asosiy jihatni – tashqi stimullardan qochish va motor faollikning pasayishini – yagona nazariy konstruktsiya doirasida ifodalaydi. Atamalar mazmunan aniq, mantiqan izchil va psixologik-pedagogik talqinga mosdir.

Seribral falajli bolalar (5-7-yosh)da aniqlangan "Sensor himoyalaniish va psixomotor passivlik faktori" sensor modulyatsiya jarayonlaridagi sezuvchanlik ortishi hamda umumiy motor faollikning pasayishi o'rtasidagi barqaror bog'liqlikni ifodalaydi.



Psixologik nuqtai nazardan, mazkur faktor tashqi stimullarga (taktil, eshitish, vizual, vestibulyar) nisbatan himoyaviy reaksiya ustunligini ko'rsatadi. Bola kuchli yoki kutilmagan ta'sirlardan qochishga intiladi, bu esa xavotirlanish, bezovtalik yoki emotsional zo'rliq bilan birga kechishi mumkin. Sensor himoyalaniish kuchaygan sari tashabbuskor harakatlar kamayadi va psixomotor passivlik shakllanadi.

Pedagogik jihatdan bu holat o'quv-faoliyat jarayonida ishtirokning sustligi, yangi vaziyatlarga moslashish qiyinligi va harakatli topshiriqlardan chetlashish bilan namoyon bo'ladi. Bola ko'proq passiv kuzatuvchi rolini egallaydi, bu esa tajribaviy o'rganish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shunday qilib, mazkur faktor sensor sezuvchanlikning ortishi fonida motor faollikning pasayishi bilan tavsiflanadi hamda korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni sensor modulyatsiyani muvozanatlash va harakat faolligini bosqichma-bosqich rag'batlantirish asosida tashkil etishni talab etadi.

Seribral falajli bolalar (5-7-yosh)da sensorli integratsiya ko'rsatkichlari asosida ajratilgan uchinchi faktor ikki komponentdan tarkib topgan: og'iz orqali sezgir reaksiyalar (0,788) va past bardoshlik / mushak tonusining pastligi (-0,433). Faktor yuklamalari mazkur konstruksiyaning psixologik mazmunini aniqlash imkonini beradi. Mazkur uchinchi faktorni "Orofasiyal sezuvchanlik va psixomotor tonus disbalansi faktori" deb nomladik.

Og'iz orqali sezgir reaksiyalar komponentining yuqori musbat yuklamasi (0,788) orofasiyal sohada sensor sezuvchanlikning kuchayganini bildiradi. Bu holat bola ta'm, hid, konsistensiya va taktil og'iz stimullariga nisbatan ortiqcha yoki nomutanosib javob qaytarishini anglatadi. Mazkur ko'rsatkich sensor registratsiya va modulyatsiya jarayonlarining o'ziga xos buzilishini ifodalaydi. Og'iz sohasi bolaning ilk rivojlanish bosqichlarida yetakchi sensor zona bo'lgani sababli, undagi sezuvchanlikning o'zgarishi umumiy xulq-atvor va emotsional reaktivlikka ham ta'sir ko'rsatadi.

Past bardoshlik / mushak tonusining pastligi komponentining manfiy yuklamasi (-0,433) esa og'iz sezgirlik kuchaygan sari umumiy jismoniy chidamlilik va mushaklar tonusining pasayish tendensiyasini ko'rsatadi. Bu psixomotor tizimning funksional zaifligi, tez charchash va harakatni barqaror ushlab turish qiyinligi bilan tavsiflanadi. Mushak tonusining pastligi sensor-motor integratsiya jarayonlarining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganini anglatadi.

Ikki komponentning o'zaro bog'liqligi shuni ko'rsatadiki, orofasiyal sezuvchanlikning kuchayishi organizmning umumiy motor resurslari va bardoshlik imkoniyatlari bilan nomutanosib uyg'unlashadi. Natijada bola og'iz sohasi bilan bog'liq stimullarga keskin reaksiya bildiradi, biroq umumiy harakat faolligida tez toliqish kuza-tiladi. Ushbu faktor sensor sezuvchanlik va psixomotor energetik resurslar o'rtasidagi disbalansni ifodalaydi.

Psixologik nuqtai nazardan, mazkur faktor og'iz orqali qabul qilinadigan ta'm, hid va taktil stimullarga nisbatan kuchaygan yoki o'zgacha reaktivlik mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mushak tonusining pastligi va tez charchash tendensiyasi psixomotor tizimning funksional zaifligini bildiradi. Bu holat sensor-motor integratsiya jarayonlarining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganini anglatadi.

Pedagogik jihatdan ushbu nomutanosiblik ovqatlanish madaniyati, nutq apparati faoliyati, artikulyatsion harakatlar aniqligi va uzoq muddatli faoliyatni bajarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli korreksion-rivojlantiruvchi ishlar orofasiyal sensor modulyatsiyani muvozanatlashtirish, mushak tonusini mustahkamlash va chidamlilikni oshirishga qaratilgan tizimli mashqlar asosida tashkil etilishi lozim.

Seribral falajli bolalar (5-7-yosh)da sensorli integratsiya ko'rsatkichlari asosida ajratilgan to'rtinchi faktor ikki komponentdan iborat: emotsional reaktivlik (0,624) va sensor reaktivlik (0,454). Har ikkala ko'rsatkichning musbat yuklamaga ega ekani mazkur faktor umumiy reaktivlik darajasining ortishi bilan tavsiflanishini anglatadi. To'rtinchi faktorni "Sensor-emotsional giperreaktivlik faktori" deb nomladik. Emotsional reaktivlik komponentining musbat yuklamasi (0,624) bolaning tashqi ta'sirlarga nisbatan kuchaygan affektiv javob ko'rsatishini bildiradi. Bu holat hissiy reaksiyalarning tez yuzaga kelishi, intensivligi yuqoriligi va barqarorligi pastligi bilan tavsiflanadi. Bunday bolalarda emotsional qo'zg'aluvchanlik yuqori bo'lib, ular oddiy vaziyatlarga ham kuchli hissiy munosabat bildirishlari mumkin.

Sensor reaktivlik komponentining musbat yuklamasi (0,454) tashqi stimullarga nisbatan sezgirlikning oshganini ko'rsatadi. Bola vizual, eshitish, taktil yoki vestibulyar ta'sirlarga tez va kuchli javob qaytaradi. Bu sensor modulyatsiya mexanizmlarining yetarli darajada muvozanatlashmaganini va qo'zg'alish jarayonlarining ustunligini anglatadi.

Ikki komponentning bir faktorda birlashuvi shuni ko'rsatadiki, sensor ta'sirlarga yuqori sezgirlik emotsional javoblarning kuchayishi bilan o'zaro bog'liqdir. Sensor tizimdagi ortiqcha qo'zg'alish affektiv tizimning ham tez faollashishiga olib keladi. Natijada bola muhitdagi o'zgarishlarga haddan tashqari sezgir bo'lib, bu ijtimoiy moslashuv va o'quv faoliyatida qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur faktor sensor va emotsional tizimlar o'rtasidagi funksional uyg'unlikning qo'zg'aluvchan tipini ifodalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sensor integratsiya tizimining kompleks buzilishi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 5-7-yoshdagi seribral falajli bolalarda sensor jarayonlar, diqqat, emotsional reaktivlik va motor funksiyalar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, ular bir butun tizim sifatida nomutanosib rivojlangan.



Diqqat va sensor ehtiyoj o'rtasidagi nomutanosiblik yetakchi omil hisoblanadi. Birinchi faktor shuni ko'rsatdiki, diqqatning beqarorligi va sensor stimullarga ortiqcha ehtiyoj mayda motorika hamda idrok jarayonlarining pasayishi bilan bog'liq.

Sensor himoyalaniish psixomotor passivlikni keltirib chiqaradi. Ikkinchi faktor asosida tashqi ta'sirlardan qochish tendensiyasi bolalarda harakat faolligining kamayishi va muhit bilan o'zaro aloqaning cheklanishiga olib keladi.

Orofasiyal sezuvchanlik va umumiy tonus o'rtasida disbalans mavjud. Uchinchi faktor bolalarda og'iz sohasi orqali sezuvchanlikning ortishi bilan birga umumiy jismoniy bardoshlik va mushak tonusining pasayishini ko'rsatdi.

Sensor va emotsional tizimlar o'zaro kuchaytiruvchi ta'sirga ega. To'rtinchi faktor natijalariga ko'ra, sensor sezgirlik ortgan sari emotsional reaktivlik ham kuchayadi, bu esa bolalarda giperreaktivlikni yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, seribral falajli bolalarda sensor integratsiya buzilishi quyidagi uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:


- sensor modulyatsiya buzilishi;
- diqqat va kognitiv nazorat sustligi;
- sensor-motor integratsiya yetishmovchiligi.

1. **Sensor modulyatsiyani rivojlantirish.** Bunda individual sensor dietasi (taktil, vestibulyar, propioseptiv mashqlar tizimi)ni ishlab chiqish, stimullarni bosqichma-bosqich va nazorat ostida berish, sensor ortiqcha yuklanishni kamaytiruvchi muhit yaratish lozim.
2. **Diqqatni boshqarish va rivojlantirish.** Qisqa muddatli, aniq va strukturali topshiriqlardan foydalanish, vizual qo'llanmalar (kartochkalar, piktogrammalar) asosida ishlash, diqqatni jamlashga qaratilgan maxsus psixogimnastika mashqlaridan foydalanish lozim.
3. **Mayda motorika va idrokni rivojlantirish.** Qo'l barmoqlari uchun mashqlar (mozaika, plastilin, konstruktiv o'yinlar), ko'z-qo'l koordinatsiyasini rivojlantiruvchi faoliyatlar, sensor-motor integratsiyaga yo'naltirilgan terapiyalardan foydalanish lozim.
4. **Psixomotor faollikni oshirish.** Harakatli o'yinlar va fizioterapevtik mashqlarni tizimli qo'llash, harakatni rag'batlantiruvchi motivatsion muhit yaratish, passiv bolalarni bosqichma-bosqich faoliyatga jalb qilish lozim.
5. **Orofasiyal rivojlanishni qo'llab-quvvatlash.** Artikulyatsion gimnastika, og'iz orqali sezuvchanlikni me'yorlashtiruvchi mashqlar, nutq terapevti (logoped) bilan tizimli ish olib borish lozim.
6. **Emotsional barqarorlikni shakllantirish.** Sensor yuklamani kamaytirish orqali affektiv zo'riqishni pasaytirish, relaksatsiya va nafas mashqlari, ijobiy emotsional mustahkamlash (rag'batlantirish) usullaridan foydalanish lozim.
7. **Pedagogik yondashuvni optimallashtirish.** Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish (ITD), o'quv muhitini sensor xususiyatlarga moslashtirish, ko'rsatmalarni qisqa, aniq va takroriy berish lozim.
8. **Ota-onalar bilan hamkorlik.** Ota-onalarga sensor integratsiya bo'yicha treninglar o'tkazish, uy sharoitida bajariladigan mashqlar tizimini ishlab chiqish, bola rivojlanishini muntazam monitoring qilish lozim.

Umumiy xulosa. Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, seribral falajli bolalarda muammo alohida funksiyada emas, balki sensor, diqqat, emotsional va motor tizimlar o'rtasidagi integratsiya buzilishida yotadi. Shu sababli korreksion ishlar ham kompleks, tizimli va multidissiplinar yondashuv asosida olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayres A. J. Sensory Integration and Learning Disorders. - Los Angeles: Western Psychological Services, 1972.
2. Bundy A. C., Lane S. J., Murray E. A. Sensory Integration: Theory and Practice. - Philadelphia: F. A. Davis, 2002.
3. Miller L. J. Sensational Kids: Hope and Help for Children with Sensory Processing Disorder. - New York: Perigee, 2006.
4. Bax M., Goldstein M., Rosenbaum P. et al. Proposed definition and classification of cerebral palsy. Developmental Medicine & Child Neurology, 2005.
5. Steenberg B., Gordon A. M. Activity limitation in hemiplegic cerebral palsy. Developmental Medicine & Child Neurology, 2006.
6. Diamond A. Executive functions. Annual Review of Psychology, 2013.
7. Morris S. E., Klein M. D. Pre-Feeding Skills. - Texas: PRO-ED, 2000.
8. Greenspan S. I., Wieder S. The Child with Special Needs. - New York: Da Capo Press, 1998.
9. Cattell R. B. Factor Analysis: An Introduction and Manual. - New York: Harper, 1952.
10. Avlayev O. Y. Tayanch harakat a'zolari buzilgan ilk o'spirinlar shaxsining psixologik xususiyatlari: 19.00.07. Avtoref. psixol. fan. nom. - T., 2007. - 52 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.